

**RIVOJLANISH MARKAZLARIDA AUTENTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH ORQALI BOLALAR IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISH**

**To‘xliboyeva Zuxra Abdumutal qizi**  
Andijon davlat pedagogika instituti  
Tayanch doktoranti  
E-mail: zuxramuxammadislom24@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18973996>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlari faoliyatida autentik materiallardan foydalanish orqali bolalarda ijodkorlik ko‘nikmasini shakllantirish masalasi yoritilgan. Autentik materiallar bolalarning mustaqil fikrlashi, tasavvur doirasining kengayishi hamda ijodiy faoliyatga qiziqishini oshirishda muhim vosita sifatida talqin etilgan. Rivojlanish markazlarining pedagogik imkoniyatlari va amaliy qo‘llash mexanizmlari tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta’lim, rivojlanish markazlari, autentik materiallar, ijodkorlik, ijodiy tafakkur, pedagogik texnologiyalar, ta’lim muhiti, mustaqil faoliyat, integrativ, tashkiliy-nazorat, rag‘batlantiruvchi, rivojlantiruvchi vazifasi.

**Аннотация:** В данной статье освещается вопрос формирования творческих навыков у детей посредством использования аутентичных материалов в деятельности центров развития в организациях дошкольного образования. Аутентичные материалы рассматриваются как важное средство развития самостоятельного мышления детей, расширения их кругозора, а также повышения интереса к творческой деятельности. Анализируются педагогические возможности центров развития и механизмы их практического применения.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, центры развития, аутентичные материалы, творчество, творческое мышление, педагогические технологии, образовательная среда, самостоятельная деятельность, интегративная, организационно-контрольная, стимулирующая, развивающая функция.

**Abstract:** This article highlights the issue of developing children’s creativity skills through the use of authentic materials in the activities of development centers within preschool educational institutions. Authentic materials are interpreted as an important tool for fostering children’s independent thinking, expanding their imagination, and increasing their interest in creative activities. The pedagogical potential of development centers and the mechanisms of their practical implementation are analyzed.

**Keywords:** preschool education, development centers, authentic materials, creativity, creative thinking, pedagogical technologies, educational environment, independent activity, integrative, organizational-control, stimulating, developmental function.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Global ta’lim tendensiyalari shuni ko‘satmoqdaki, kelajak jamiyatida muvaffaqiyat qozonish uchun bolalarda kreativ fikrlash, ijodiy izlanishlarni qo‘llab-quvvatlashni talab qilmoqda. Rivojlanish markazlar esa bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos tashkil etilgan ta’lim muhiti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Аутентик materillar** – bu real hayotda qo‘llanadigan, tabiiy yoki kundalk buyumlar bo‘lib, ular orqali bola tajriba asosida o‘rganadi.

Tabiiy materiallar, oddiy maishiy buyumlar va kasbga oid predmetlar bolada kuzatuvchanlik, tahliliy tafakkur va yaratish jarayonini faollashtiradi.[1,45-47]

Maria Montessori metodikasiga ko‘ra, bola mustaqil faoliyat orqali rivojlanadi, bunda real buyumlarning o‘rni juda yuqori.[2, 112]

Autentik materiallar bolalarning mavjud bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarini yanada shakllanishiga xizmat qiluvchi vositadir. Autentik materiallar tarbiyalanuvchilarni real kontekst va vaziyatlar bilan tanishtirish shu qatorda ularning ijodkorlik ko‘nikmasini rivojlantirishga atrofda olam bilan o‘z ijodlarini bog‘lay olishga imkon beradi. Bu esa o‘z vaqtida faoliyatni qiziqarli va amaliy bo‘lishiga xizmat qiladi. Olib borilayotgan faoliyat qanchalik qiziqarli bo‘lsa, bizning bolajonlarimiz shunchalik ko‘proq bilishga intiladilar va natijada ko‘proq o‘rganadilar. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, autentik materiallar shaxsni o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi. Autentik materiallar deganda biz turli

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

matn, audio, rasm hamda har xil resurslarni tushinamiz. Ular aniq ta’lim maqsadlariga yo’naltirilmagan bo’lsada real hayotiy vaziyatlarda hamda faoliyat jarayonida qo’llanishi mumkin. Odatda autentik materiallar arzon, moslashuvchan, topishga va o’z maqsadlaringizga yo’naltirishingizga qulayligi bilan ajralib turadi. Masalan: gazeta, jurnallar, qo’shiqlar, kinofilmlar, turli audio podkastlar, rasmlar, o’yinchoqlar, atrofdagi jihozlar ham shular jumlasidandi

### **Rivojlanish markazlarida autentik materiallardan foydalanish imkoniyatlari:**

#### **1. Fan va tabiat markazi**

Tabiatdagi haqiqiy buyumlar – toshlar, urug’lar, yaproqlar, shoxlar, tuproq, mevalar, turli donlar – bolada kuzatuvchanlikni rivojlantiradi. Bunday materiallar yordamida suv va qum bilan tajribalar; barglar shaklini solishtirish; urug’ ekish va o’sishini kuzatish.

Bu jarayonda tabiiy materiallar yordamida tajribalar o’tkazish bolalarda **tadqiqotchilik qobiliyatini** rivojlantiradi. Natijada bola savol beradi, taxmin qiladi va xulosa chiqaradi - bu esa ijodiy tafakkurning asosidir.

#### **2. San’at markazi**

Tabiiy va kundalik materiallardan kollaj, maket yoki rasm yaratish bolada erkin tasavvur va estetik didni shakllantiradi. Masalan: mato parchalaridan kompozitsiya yaratish; barglardan applikasiya; loy va plastirindan haykal yasash Bu jarayonda albatta ijodkorlikni rag’batlantiradi.

#### **3. Qurish, konstruksiyalash va matematika markazi**

Qurish uchun faqat plastic yoki tayyor konstruktorga emas, balki:

yog’och bo’laklari, karton qutilar, tabiiy toshlar, qog’oz rolidlari, iplar va tyoqchalar kabi autentik materiallardan foydalanish bolaning konstruktorlik kreativligini keskin oshiradi. Bola o’zi tanlaydi, sinab ko’radi, barqarorlikni topadi, qayta quradi

#### **4. Til va nutq markazi**

Real hayotda uchraydigan buyumlar ( meva-sabzovotlar, idishlar, kiyim-kechak, kasbga oid predmetlar) nutq faoliyatini rag’batlantiradi. Bunda bola:

voqea yaratadi, predmetlar asosida hikoya tuzadi, rolda gapiradi, tasvirlaydi va taqqoslaydi.

Bu jarayon bolada **metafora yaratish, obrazli tasvirlash, ijodiy nutq** kabi yuqori darajadagi tafakkur ko’nikmasini shakllantiradi.

#### **5. Syujetli – rolli o’yinlar va sahnalashtirish markazi**

Ushbu markazda qo’llashini mumkin bo’lgan autentik materiallar: haqiqiy idish-tovoqlar, turli kasblarga oid predmetlar ( shifokor stetoskopi, quruvchi shlemi, bog’bon anjomlari), kiyim-kechak elementlari (sharf, qalpoq, sumka) telefon, daftar, chiroq kabi uy-ro’zg’or buyumlari, bozor, oshxona, kasalxona, do’kon va ustaxona sahnalarini aks ettiruvchi predmetlar.

Bular orqali bola real hayotiy rollarga kirishadi, o’z hikoyasini yaratadi, syujetni mustaqil davom ettiradi, muloqot va ijtimoiy fikrlashi rivojlanadi, boshqa bolalar bilan kelishadi, rollarni bo’lishadi. Natijada ijodiy nutq, emotsional ifoda, dramatisatsiya ko’nikmalarini, muloqot va hamkorlikni, mustaqillik va tashabbuskorlik shakllanadi

Tadqiqotchi J. Xarmerning fikricha, agar tarbiyalanuvchilarga mos keladigan asl materiallarni topish imkoni bo’lsa, bu foydali bo’lardi, ammo buning iloji bo’lmasa, maxsus ishlab chiqilganlardan ko’ra moslashtirilgan materiallardan foydalanish afzaldir deya ta’kidlaganlar.

### **Faoliyat jarayonida qo’llaniladigan autentik materiallar quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:**

**Integrativ vazifasi** shundan iboratki, autentik materiallar o’quv bosqichlarini tashkil etish va tizimlashtirishga yordam beradigan dars qismlari o’rtasida bog’lovchi bo’lib xizmat qiladi.

Autentik materiallarning **axborot va ta’lim vazifasi** shundan iboratki, ular tabiiy nutq aloqasi shartlarini qayta yaratadi, o’rganilayotgan ma’lum bir mamlakati to’g’risida ma’lumot beradi, aloqa holatini aniqroq ko’rsatishga imkon beradi.

**Tashkiliy-nazorat qiluvchi yoki rag’batlantiruvchi vazifasi** autentik materiallarning nutq faolligini rag’batlantiruvchi “mavjudlik ta’siri” yoki “ishtirok ta’siri” ni ta’minlashida namoyon bo’ladi.

**Rivojlantiruvchi vazifasi** kuzatish, tasavvur qilish, diqqat, fikrlash, lingvistik xotira kabi shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish, nutq va ijodiy faoliyatning barcha turlari bo’yicha ko’nikmalarni shakllantirishda namoyon bo’ladi.

Ta’lim-evristik vazifasi o’rganilayotgan ma’lumotni mamlakati xalqi va madaniyatiga hurmat tuyg’usini rivojlantirish, notanish va begona tilni bilish, o’rganilayotgan til mamlakatining madaniy xususiyatlarini va o’z madaniyatini solishtirishga undash va o’rganishga qaratilgan.

## “Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Tadqiqotimiz jarayonida bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda autentik materiallarning o‘rni va ahamiyati haqida ham alohida to‘xtalib o‘tishni maqsad qilganmiz. Chunki, autentik materiallar bolalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirish bilan birga ularga o‘z imkoniyatlarini ko‘rsata olishlariga ham katta imkoniyatlarni beradi. Autentik materiallar nafaqat til va madaniy ma’lumotlarni yetkazish, balki samarali, mustaqil va ijodiy faoliyat uchun sharoit yaratadi.

**Birinchi**dan, autentik manbalarning xilma-xilligi va mazmunining variativligi hamda moslashuvchanligi bolalarning izlanish faolligini rag‘batlantiradi. Gilmorning fikrlariga ko‘ra, ta’lim maqsadlariga moslashtirilmagan materiallar bolalardan mustaqil ravishda ta’lim mazmuniga doir bo‘liqlik taraflarini izlash, ma’lumotlarni sharxlash va o‘z yechimlarini ishlab chiqishni talab qiladi, bu ijodiy fikrlashni rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq.

**Ikkinchi**dan, autentik materiallar tasavvurning rivojlanishiga va ma’lumotni o‘zgartirish qobiliyatiga hissa qo‘shadi. Doktor Nunanning ta’kidlashicha autentik matnlar, tasvirlar yoki audiovizual materiallar bilan ishlash bolani matnlarning mazmunini o‘zgartirishga, to‘ldirishga yoki qayta talqin qilishga undaydi, bu ijodiy faoliyatning muhim elementi hisoblanadi.

**Uchinchi**dan, autentik materiallar “hayotiy vaziyatlarga yaqin kontekst” yaratadi, bunda bola nostandart sharoitlarda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llashni o‘rganadi. Sharoitga tezda moslashish va muammolarni hal qilishning original usullarini topish qobiliyatini rivojlantiradi (Guariento va Morley, 2001).

**To‘rtinchi**dan, autentik materiallar bolaning madaniy va hissiy tajribasini boyitadi, uning dunyo haqidagi tushunchasini kengaytiradi. F. Mishan fikriga ko‘ra, boshqa mamlakatlarning madaniy kodlari, tasvirlari va an‘analari bilan tanishish nafaqat bag‘rikenglikni, balki madaniy materialni ijodiy qayta ko‘rib chiqish, uni o‘z g‘oyalari va loyihalariga integratsiya qilish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Demak, o‘quv jarayoniga autentik materiallarni kiritish bizga til ko‘nikmalarini rivojlantirishni, ijodiy fikrlash hamda ijodiy kompetensiyani rivojlantirish bilan uyg‘unlashtirishga imkon yaratadi. Bu o‘quv jarayonini yanada tabiiy, qiziqarli va bolaning individual rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Rivojlanish markazlarida autentik materiallardan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodkorligini shakllantirishda eng samarali pedagogik vositalardan biri ekanligi tadqiqotlar va amaliy tajriba orqali o‘z isbotini topdi. Real hayotga tegishli, tabiiy va kundalik buyumlar bolaning kognitiv faoliyatini faollashtiradi, mustaqil kuzatish, tajriba o‘tkazish, tahlil qilish, solishtirish va yaratish jarayonini rag‘batlantiradi. Bunday materiallar bolalarning o‘quv jarayonini sun‘iylikdan xolis qilib, ularning atrof-muhit bilan bevosita amaliy muloqotda bo‘lishiga imkon yaratadi.

Rivojlanish markazlarining har biri fan va tabiat, til va nutq, san‘at, qurish-konstruksiyalash va matematika, syujetli rolli oyinlar markazlari – autentik materiallar orqali yanada mazmunli va tabiiy muhit hosil qiladi. Tabiiy buyumlar yordamida bola hodisalarni kuzatadi, rollarga kiradi va ijodiy nutqni rivojlantiradi, konstruktorlik materiallari yordamida esa yangi shakllar, modellar yaratib, muammoni yangicha hal qilishga intiladi. Bu jarayonlarning barchasi ijodiy tafakkur va divergent fikrlashni shakllantirishning asosiy omillaridir.

Yakun qilib aytganda, rivojlanish markazlarida autentik materiallardan maqsadli va tizimli foydalanish bolalarning ijodiy fikrlashi, amaliy tajriba orttirishi, muammoga yangicha yondashuv topishi va mustaqil o‘ynash ko‘nikmalarini kuchaytiradi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida autentik materiallar asosida boyitilgan o‘quv muhitini yaratish, pedagoglarning bu boradagi metodik savodxonligini oshirish va izlanishga yo‘naltirilgan o‘yin faoliyatini ko‘paytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Tomlinson. B. Til o‘qitishda materiallardan yaratish. Kembrij Universiteti, 2011. – 45-47 betlar
2. Montessori. M Montessori metodikasi 112- bet
3. Gilmore. A. (2007). Chet tilini o‘rganishda autentik materiallar va autentiklik. *Language Teaching* jurnali, 40(2), 97–118-betlar.
4. Nunan, D. (1999). *Ikkinchi tilni o‘qitish va o‘rganish*. Boston: Heinle va Heinle.
5. Guariento, V., va Morley. J. (2001). EFL (chet tili sifatida ingliz tili) sinfxonasida matn va topshiriq autentikligi. *ELT Journal*, 55(4), 347–353-betlar.
6. Mishan, F. (2005). *Til o‘rganish materiallariga autentiklikni singdirish (loyihalash)*. Bristol: Intellect Books.